

FAYNBERG SERQIRRA IJODKOR

Muxidinxonova Diloromxon Jalol qizi *O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti 2-bosqich talabasi*

Annotatsiya: *Faynberg.* Bu ismni eshtar ekansiz rus yozuvchisi ekanligini tezda fahmlaysiz, ammo u nafaqat rus, balki o'zbek yozuvchisi, tarjimon, shoir va ko'plab ssenariylar muallifi hamdir. Uning she'rlari qalblarni junbishga keltiradi va chuqur o'yga toldiradi. Faynberg o'zbek adabiyotini dunyoga yoygan, uni boshqalarga ham tanitgan ajoyib yozuvchi va tarjimondir.

Kalit so'zlar: *Pushkin medali, badiiy filmlar, multiplikatsion filmlar, rusiyabon, hajviya, o'zbek choyxonasi, sermahsul, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Omon Matchon, Sirojiddin Said, O'zbekiston qahramoni.*

Bilamizki Aleksandr Faynberg Arkadevich - nafaqat rus shoiri, balki O'zbekiston xalq shoiri hamdir. O'zbekiston shoirlar osmonida Aleksandr Faynberg eng yorqin yulduzlardan biridir desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning ijodi o'ta serqirra. Uning to'plamlari Toshkent, Moskva hamda Sankt Peterburg shaharlarida chop etilgan. Rossiya Prezidentining farmoni bilan O'zbekiston shoiri Aleksandr Arkadevich Faynberg 2008-yil Pushkin medali bilan taqdirlangan.

U o'n beshta she'riy kitoblar muallifidir. Shuningdek, uning ssenariylari asosida to'rtta uzun metrajli badiiy filmlar va yigirmadan ortiq multiplikatsion filmlar suratga olingan. U Alisher Navoiyning doston va she'rlarini, shuningdek, boshqa zamонави о'zbek shoirlarining she'rlarini rus tiliga tarjima qilgan. Ajoyib tarjimonimiz rusiyabon kitobxonlarga taniqli o'zbek shoirlarining ko'plab asarlarini ochib bergen. Bunga misol qilib Erkin Vohidovning „Ruhlar isyon“ dostonini, Sirojiddin Said, Abdulla Oripov, Omon Matchonlarning she'rlarini misol qilishimiz mumkin.

Faynberg she'rlarida hajviya ham mavjud desak mubolag'a bo'lmaydi. "Ruboiy tori" dostonida u kulgu orqali o'zbek choyxonasini o'zgarmas oshini tasvirlaganini o'qir ekansiz, beixtiyor yuzingizga tabassum yuguradi. Faynberg ana shunday serqirra, ajoyib tarjimon, shoir, yozuvchidir.

Shoirning ijodi sermahsul va keng ko'lamlı. Uning she'rlarida rang – baranglik, falsafiylik, teranlik, tuyg'ular tiniqligi yarqirab turadi. Shoir so'zni chuqur his etadi, bu hisga kitobxonlarni ham hamroh qiladi. U jannatmakon O'zbekistonda yashadi, ijod qildi va ulkan zafarlarga erishdi. Bu yurtning havosi, osmoni, tuprog'i, eli, bir so'z bilan aytganda, butun borlig'i shoirga she'r qadar, qalb qadar aziz. Bu esa shoir satrlarida yaqqol ko'zga tashlanadi, insonni o'ziga jalb qiladi va uni qayta-qayta o'qishga undaydi. Hattoki kitobxon bo'Imagan, adabiyotga, she'riyatga qiziqmagan odamda ham she'rni o'qiganida ajib hislar, muhabbat paydo bo'ladi. Chunki shoir nafaqat she'rlarini, balki asarlarini ham qalam bilan emas, qalbidagi mehr va muhabbat bilan qog'ozga ko'chirgan.

XX asr o'zbek adabiyotining buyuk namoyondasi, O'zbekiston Qahramoni , taniqli shoir Abdulla Oripov u haqida: "Aleksandr Faynbergning ijodiga kelsak, barcha baland so'zlar haqiqatning yuzdan bir qismini ham aks ettirmaydi, chunki u, aslida, noyob shoir va tarjimon edi. Rus tilida so'zlashadigan yozuvchilardan hech biri bizning quyoshli o'lkamizga shunchalik samimiyl qo'shiq kuylashi mumkin emas", - degan edi. Abdulla Oripovdek ulkan yozuvchining e'tiboriga sazovor bo'lganidan bilishimiz mumkinki, Aleksandr Faynberg ijod olamida o'ziga xos o'r'in egallagan , o'zbek xalqi yuragiga chuqr kirib borgan insondir.

VARAQ

Yulduzlarni asraydi falak,
Teran dengiz asrar durlarni.
Daftarimdan yirtilgan varaq,
Asragin men yozgan she'rlarni.
She'r – nafaqat o'qimoq, uqmoq,
She'r – yurakda yangragan tovush:
Qutqargandek taygada so'qmoq,
Tebrangandek ko'llarda qamish.
Har satrim – jon, har she'rim – yurak,
O'rmon, qushlar, bulutlarga xesh.
Daftarimdan yirtilgan varaq,
She'rlarimni asra peshma-pesh.
Avlodlarga kelmasin malol,
She'rlarim g'am chekmasin nochor,
Shamol, dengiz va yaproq misol
Nafas olsin, kulsin beg'ubor.

Umuman olganda inson she'r mutolaa qilgan sari adabiyotga mehri jo'shib boraveradi, ammo Faynbergning she'rlari mehr bilan bir qatorda,muhabbatni ham,ajib his-tuyg'ularni ham qalbimizga jo qiladi. Misol uchun yuqoridagi bag'oyatda nafis satrlarga e'tibor bersangiz, shoirning varaqqa qilgan nolasini, iltimosini anglaysiz. U she'rni faqatgina qog'ozga yozilgan qofiyali so'zlardan iborat emasligini, yuragidan chiqqan tovush ekanligini, she'rning har satri esa uning joni, uning yuragi ekanligini aytib o'tgan. Bu ijod mahsuli avlodlarga ham qolishi, undan bahraman bo'lismiz uchun varaqqa iltimos ila murojat qilib, she'rlarni asrab qolishini so'ramoqda.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Aleksandr Faynberg kuchli mehr- muhabbat, beqiyos Vatanga bo'lgan sadoqati, adabiyotimizni dunyoga tanitishdagi buyuk xizmatlari tufayli xalqimizning buyuk shoiri bo'lib qoldi. Uning asarlari ruhimizga-ma'naviyatimizga oziq, qalbimizga orom va huzur baxsh etadi . Demak, shunday insonni qadrlamaslik, asarlarini sevib o'qimaslik mumkin emas!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/jahon-she-riyati/rus-she-riyati/aleksandr-faynberg-1939-2009>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aleksandr_Faynberg
3. <https://arboblar.uz/uz/people/fajnberg-aleksandr-arkadevich>